



## ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar--mart

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning 3oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 foizga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 8,4 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, benzin va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,2 foizga ko'payishiga olib keldi.

### 2018 yil yanvar-mart oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Denov tumani (21,9 foiz), Termez shahri (19,3 foiz), Sho'rchi (9,2 foiz) va Sherabod (6,0 foiz), tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 0,4 foizga ko'paydi, 0,7 mln. so'mni tashkil etdi (2017yil yanvar-mart oylarida 0,5 mln. so'mni tashkil qilgan edi).



O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Termez shahri (2,4 mln. so'm), Denov tuman (1,0 mln. so'm) va Sho'rchi tumani (0,8 mln. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 29,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 8,7foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,6 foizni tashkil etdi.

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	713,5	100,4
Termez shahri	2412,8	103,2
<i>tumanlar:</i>		
Olnisoy	497,8	99,4
Angor	648,7	102,1
Boysun	667,0	101,4
Muzrabot	522,9	99,0
Denov	1041,1	99,5
Jarqurg'on	492,2	100,6
Qumqurg'on	371,6	98,6
Qiziriq	495,4	100,7
Sariosiyo	404,6	101,5
Termez	490,6	95,9
Uzun	418,6	99,2
Sherabod	584,8	102,1
Sho'rchi	833,1	99,3

## O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,9 foizga kupaydi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 91,6 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 156,5 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 8,7 foizni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlar, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
(0371) 230-85-68